

## DIAGRAMMALAR

*Surxandaryo viloyati Sherobod tumani*

*46 -sonli maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

*Boltayeva Nafisa Qurbanovna*

### **Darsning maqsadi:**

**Maqsad: chiziqli va ustunli diagrammalar, ular yordamida berilgan ma'lumotlar bilan ishlash ko'nigmalarini shakllantirish.**

Ta'limiy: o'quvchilarga diagrammalar mavzusini yangi ped.texnologiyalar yordamida tushuntirish, ular ustida misol va masalalar yechish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarga yo'llarda harakatlanish qoidasini esga solish va yo'lning qatnov qismida o'ynamaslikni o'rgatish;

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning hayoliy tasavvurlarini ta'riflay olish malakalarini rivojlantirish.

Darsning turi: Yangi bilim beruvchi, aqliy hujum.

Darsning usuli: Tushuntirish, savol-javob, noana'naviy, uycha metodikasi, misollar yechish.test bilan ishlash.

Darsning jahozi: Mavzuga oid ko'rgazma, slayd multimedya ilovasi, AKT, monitor,kartochkalar.

### **Darsning borishi:**

T/R	Bo'limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	<b>3 daqiqa</b>
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	<b>5 daqiqa</b>
3	Yangi mavzu bayoni	<b>15 daqiqa</b>
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	<b>10 daqiqa</b>
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash	<b>10 daqiqa</b>
6	Uyga vazifa	<b>2 daqiqa</b>
Jami		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism.** O'quvchilarga darsda rioya qilinadigan “**Oltin qoidalar**”ni eslatib o'tiladi.

- 1. Intizom.**
- 2. O'ng qo'l qoidasi**
- 3. O'zgalar fikrini tinglash**
- 4. Faollik**
- 5. O'zaro hurmat**
- 6. Qisqa va aniq javob.**

Salomlashish,davomatni aniqlash.

O'qituvchi: Sinfda kim navbatchi?

**Navbatchi:** Sinfda men navbatchi  
Ustozimga yordamchi,  
Pok tutaman xonani  
Hamda yozuv taxtani.  
Ustozimiz shod bo'ling  
Bugun hamma shu yerda  
Darsingizni miriqib  
Eshitish umidida.

**O'qituvchi:** Endi sinfdagi o'quvchilar bilan tanishib olamiz.,,Zanjir“o'yini orqali o'quvchilar ismlarining bosh harfi bilan boshlanadigan sifatlarini aytadilar.

**O'quvchilar:** Ahrorbek-a'lochi, Madina-mehnatkash, Saida-sadoqatli, .....

**O'qituvchi:** Sizlarga savol beraman, javobini aytasiz.

**1-savol.** *Kechqurun yo'llarimizni yoritib turuvchi osmon jismi? (Oy)*

**2-savol.** *Hamma insonlar uning uvog'ini ham ko'zga surtib qadrlaydigan ne'mat? (Non)*

**3-savol.** *Inson tug'ilganidan keyin ilk bor eshitadigan onalar qo'shig'i? (Alla)*

**4-savol.** *So'zlarni talaffuz qilganimizda faol ishtirok etuvchi nutq organlaridan biri? (Til)*

**5-savol.** *Insonni Yuksaklikka ko'taruvchi narsa? (Ilm)*

**6-savol.** Issiqxonlarda yetishtiriladigan meva? (limon)

**7-savol.** Insonni eng yaqin sodiq do'sti hisoblanuvchi hayvon? (It)

**8-savol.** Bizning vatanimiz qayer? (Ozbekiston)

**9-savol.** Bizning viloyatimiz qayer? (\_\_\_\_\_ shahri)

**10-savol.** O'zbekistning poytaxti qayer? (Toshkent)

**11-savol.** O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin nimalarga ega bo'ldi? (Bayrog'i, madhiyasi, gerbi, qomusiga)

**12-savol** Bu yil qanday yil deb e'lon qilindi?

**15-savol.** O'zbekiston qachon mustaqil deb e'lon qilindi? (1991-yil 31-avgustda)

**16-savol.** Rassom nima qiladi? (Rasm chizadi)

**18-savol.** Bayroq qabul qilingan kun? (18-noyabr)

**19-savol.** Madhiyamiz muallifi? (A. Oripov)

**20-savol.** Ingliz tilida sanang.

**O'qituvchi:** She'riyat olamiga sayohat qilsak bunda vatanni madh etuvch she'rlardan eshitamiz. Shu paytda vatanimiz haqidagi video rolik namoyish etib qo'yiladi:

**O'qituvchi:** 5 tashabbus nima ?

**O'quvchilar she'riy usulda javob beradilar:**

**Mashxura:** Dunyolarni egallab,

Cho'qqlarga chiqdik biz.

Yurtboshimiz madadkor ,

Qo'llar beshta tashabbus.

**Shodiyor:** Musiqa chal,she'rlar yoz,

Sen hohlasang rasm chiz.

Aktyor bo'lmoqchimisan,

Qo'lllar beshta tashabbus.

**Elbek:** Sport bilan shug'ullan

Boks ,tennis ,suvda suz

Jismonan chiniqasan  
Qo'lllar beshta tashabbus.

***Hayotbek:***

Kompyuter asri bu  
Kerakli dasturlar tuz  
Xalqqa tegsin zo'r foydang  
Qo'lllar beshta tashabbus.

***Shohruh:*** Kitob nurdir ilmning  
Dengizida sho'ng', suz,  
Boshqarasan dunyoni  
Qo'lllar beshta tashabbus

***Shahnoza:*** Bizda hamma teng erur  
Teng huquqli yigit –qiz  
Bo'sh o'tirma tik, pishir  
Qo'lllar beshta tashabbus.

## **5 TA MUHIM TASHABBUS**



**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** O'tilgan mavzuni mustahkamlashda har bir qatordan bittadan o'quvchi chiqadi va misollar bajaradi.

**Maqsad: chiziqli va ustunli diagrammalar, ular yordamida berilgan ma'lumotlar bilan ishslash ko'nikmalarini shakllantirish.**

1. Nazorat ishining baholash natijalarini koordinata burchagida joylashtiramiz.

Baho	5	4	3	2
Soni	4	12	10	2

Mos nuqtalarni koordinata burchagida belgilab, ularni ketma-ket tutashtirganda chiziqli diagramma hosil bo'ladi.



1. Diagramma – miqdorlar o‘rtasidagi bog‘lanishni grafi tarzda ifodalash (yaqqol ko‘rsatish) usullaridan biri. Diagrammada o‘lchov birligi miqdorning turiga qarab tanlanadi. Masalan, og‘irlik (massa) t, kg, g larda, harorat gradus (daraja) orqali ifodalanadi. Mos nuqtalarni koordinata burchagida belgilab, ularni ketma-ket tutashtirganda chiziqli diagramma hosil bo‘ladi.

*O’quvchilar nechchi raqami yozilgan baligni tutushgan bo’lsalar shu raqdagi misollarni bajarishadi. 7-rqamli baliqni tutgan o’quvchiga rag’bat kartochkasi beriladi.*


1.  $725 + 90 : 15$
2.  $(972 - 482) : 7$
3.  $280 : 4 + 142 * 4$
4.  $1000 - 84 * 6$
5.  $6 * (683 - 579)$
6.  $178 * 4 + 720 : 6$
7.  $1000 + 20 * 5$

### Yangi mavzu bayoni:

1.  O’quvchilarning bo‘ylarini taqqoslaymiz. Savollarga javob beramiz.

- Kimning bo‘yi eng uzun?
- Kimning bo‘yi eng past?
- Abrorning bo‘yi kimdan baland, kimlardan past?
- Kimning bo‘yi Boburdan past, Abrordan baland?
- Bobur bilan Asilaning bo‘yi qanchaga farq qilyapti?

Bu ustunli diagrammadir.





1. “Nima uchun?” metodi orqali bajarish tavsiya etiladi. O’quvchilar diqqati ekranda tasvirlangan diagrammaga qaratiladi. Ularga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

- 1) Kimning bo‘yi eng uzun? (Boburning)
- 2) Nima uchun? (Chunki uning bo‘yi yuqori shkalada turibdi.)
- 3) Kimning bo‘yi eng past? (Asilaning)
- 4) Kimning bo‘yi Boburdan past, Abrordan baland? (Mohiraning)
- 5) Nima uchun? (Chunki 120 soni 140 sonidan kichik, 100 sonidan katta)
- 6) Bobur bilan Asilaning bo‘yi qanchaga farq qiladi? (62 cm)
- 7) Nima uchun? (140 – 78 = 62)

O‘quvchilarning javoblari umumlashtiriladi. Bunday diagrammalar ustunli diagrammalar deb atalishi haqida tushuncha beriladi.

### 2. Ustunli diagrammadan foydalanib savollarga javob beramiz.

- Nechta o‘rdak bor?
- Qaysi hayvon eng ko‘pi?
- Tovuqlar o‘rdaklardan qanchaga farq qilyapti?
- Qaysi hayvon eng kami?
- Har bir hayvon sonini aniqlang va diagrammadagi ma’lumotlar bilan solishtiring.



### 2. Ustunli diagrammadan foydalanib savollarga javob beramiz.

- 1) Nechta o‘rdak bor? (5 ta)
- 2) Qaysi hayvon eng ko‘pi? (Tovuq, 7 ta )
- 3) Tovuqlar o‘rdaklardan qanchaga farq qilyapti?

$$(2 \text{ taga}, \text{ chunki } 7 - 5 = 2)$$

- 4) Qaysi hayvon eng kami? (Qoramol)


Har bir hayvon sonini aniqlang va diagrammadagi ma’lumotlar bilan solishtiring

*Guruhlarda ishlaymiz. Qani qaysi jamoa tez va aniq misollarni bajaradi*


### 3. 140 nafar kishi o‘rtasida «Eng yaxshi vidjetlar qaysi?» nomli so‘rov-noma o’tkazildi. Berilgan ma’lumotlar asosida diagramma tuzamiz.

	Tarjima vidjeti	Ob-havo vidjeti	Foto vidjeti	Navigator vidjeti	Taqvim vidjeti
Odamlar	35	30	10	40	25

**3.** Berilgan topshiriqni “Kim chaqqon?” mashqi orqali bajarish tavsiya etiladi. O‘quvchilarga koordinata burchagi tasvirlangan tarqatmalar beriladi. Ular jadvalda berilgan ma’lumotlardan foydalanib ustunli diagramma chizadilar. O‘qituvchi to‘g‘ri javobni ekran orqali namoyish qiladi. O‘quvchilar shu asosda chizgan diagrammalarini tekshiradilar. Topshiriqni tez va to‘g‘ri bajargan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.




Bo‘sh kataklardagi sonlarni aniqlaymiz.



**4.** O‘quvchilarning mantiqiy firlashini rivojlantirish maqsadida ushbu topshiriqni bajarishini tavsiya qiling.  
E’tibor beramiz:

$$20 + 40 = 60 \text{ va } 60 + 80 = 140.$$


Ushbu qonuniyatdan foydalanib qolgan sonlar topiladi.



### III.Yangi mavzuni mustahkamlash:



Azamat 24 soat vaqtini nimalarga sarf etganini ustunli diagrammada ifodaladi.



- U eng ko'p vaqtini nimaga sarflagan?
- Eng kam vaqtini nimaga safrlagan? U maktabda televizor tomosha qilishdan ko'ra necha soat ko'p muddat bo'lgan?

5. Berilgan topshiriqni “Olovli koptok” o'yini orqali bajarish tavsiya qilinadi.

Ekran orqali topshiriqdagi diagramma namoyish qilinadi. Masalaning mazmuni tahlil qilinadi. O'qituvchi savol aytib o'quvchiga uzatadi, o'quvchi shu savolga javob berib koptokni qaytaradi. O'qituvchi quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:

- 1) U eng ko'p vaqtini nimaga sarflagan? (Uyquga)
- 2) Eng kam vaqtini nimaga sarflydi? (Ovqatlanishga)
- 3) U televizor tomosha qilishdan ko'ra necha soat ko'p maktabda bo'lgan? (3 soat)
- 4) Televizor ko'rish bilan sportga birgalikda qancha vaqt sarflgan? (7 soat)



Bir guruh bolalar o'zlari yoqtirgan musiqa asbobiga ovoz berishdi.

Diagrammadan foydalanib savollarga javob beramiz.

- Qaysi asbob eng ko'p ovoz oldi?
- Qaysi asbob beshta ovoz oldi?
- Gitara olgan ovozlar soni do'mbiranikidan nechtaga ko'p?
- Pianino va nay qancha ovozga ega? Ular tengmi?



6. O'quvchilarga topshiriqni bajarishda diagrammani to'g'ri tahlil qilish lozimligi eslatiladi. Diagrammadan foydalanib savollarga javob beramiz:

- 1) Qaysi asbob eng ko'p ovoz oldi? (Pianino, 7 ta ovoz)


- 2) Qaysi asbob beshta ovoz oldi? (Nay)
- 3) Gitara olgan ovozlar soni do‘mbiranikidan nechtaga ko‘p? (Gitara olgan ovoz 6 ta, do‘mbira olgan ovoz 4 ta; 2 taga ko‘p).
- 4) Pianino va nay qancha ovozga ega? Ular tengmi? (Pianino 6 ta, nay 5 ta ovozga ega; yo‘q, ular teng emas.)

### **Qo‘sishimcha**

**topshiriq.**

Smartfondagi ob-havo ilovasida mart oyining birinchi haftasidagi havoning o‘rtacha sutkalik temperaturasi hafta kunlari bo‘yicha mos ravishda 10 °C, 10 °C, 12 °C, 14 °C, 20 °C, 17 °C, 15 °C bo‘ldi. Haftalik temperaturani tasvirlovchi diagramma tuzing. Dastlab, masala shartiga mos jadval tuziladi.

Hafta kunlari	Temperatura
Dushanba	10 °C
Seshanba	10 °C
Chorshanba	12 °C
Payshanba	14 °C
Juma	20 °C
Shanba	17 °C
Yakshanba	15 °C



**V. O‘quvchilarni baholash va darsni yakunlash.** Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilar va guruqlar baholanadi va rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifa berish.** Darslikning uydga vazifa qismida berilgan topshiriqlar sharti tushuntirib beriladi. 4-5-misol